



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK  
PEDAGOGLARNING ANTIKORRUPSION KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH MODELI**

**Isroilov G‘olib Rashidovich**

*Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**Anotatsiya:** *Ushbu tadqiqotda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak pedagoglarda halollik, ijtimoiy mas‘uliyat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi tizimli-funksional modelni ishlab chiqishdan iborat. Model metodologik, me‘yoriy-huquqiy, metodik va natijaviy bloklardan iborat bo‘lib, pedagogik faoliyatda integrativ yondashuv orqali antikorrupsion qadriyatlarni shakllantirishni ta‘minlaydi. Shuningdek, tadqiqotda kognitiv, faoliyatga doir va aksiologik komponentlar, baholash mezonlari va ularning darajalari aniq asoslab berilgan. Natijalar bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirishning samaradorligini oshirish, ularning kasbiy va fuqarolik fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *integrativ yondashuv, antikorrupsion kompetentlik, pedagogik model, halollik tarbiyasi, huquqiy madaniyat, kasbiy tayyorgarlik, aksiologik yondashuv, tizimli-funksional model, reflektiv yondashuv, ijtimoiy mas‘uliyat.*

Bugungi kunda pedagogik jarayonni modellashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu orqali pedagogik jarayonni tashkil etishning mohiyati, qilinishi kerak bo‘lgan ishlarning ketma-ketligini ifodalash mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham pedagogik tadqiqotlarda qo‘yilgan maqsadga erishishning muhim vositalaridan biri modellashtirish sifatida ko‘riladi.

Tadqiqot doirasida pragmatik, tizimli-funksional modelni ishlab chiqish maqsad sifatida belgilandi. Modelning mazkur turi integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish jarayonini boshqarish vositalarini izlab topish, model sub‘ekti sifatida talabalarning tayyorgarlik darajasining boshlang‘ich va yakuniy holati o‘rtasidagi farqqa erishishga imkon beruvchi tadqiq etilayotgan jarayonlarni boshqarish funksiyalarini aks ettirishga yordam beradi<sup>4</sup>.

Bizning tadqiqotimizda modellashtirish ob‘ekti sifatida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish jarayoni, predmetini esa, ularda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

4 Педагогика / В.А. Слостенин [и др.]. – М.: Школа-Пресс, 1997. – С.512.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Talab etilayotgan pedagogik tizimni modellashtirishda quyidagi funksiyalarning bajarilishi ko'zda tutildi:

- metodologik ta'minot funksiyasi. Mazkur funksiyani amalga oshirish me'yoriy-huquqiy hujjatlar va integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq;

- me'yoriy-huquqiy ta'minot funksiyasi. Mazkur funktsiya integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga doir faoliyatga jalb etish tamoyillari, mazmuni, vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, diagnostik vositalarini aniqlashni taqozo etadi;

- metodik ta'minot funksiyasi. integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning metodik (mazmuni, shakl, metod va vositalari) shart-sharoitlarini aniqlashtirishni talab etadi;


- amaliy-tatbiqiy (empirik) funktsiya. Mazkur funktsiya qator vazifalarni hal etishga imkon beradi: integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga doir bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan bog'liqlikda qadriyatga yo'naltirilgan ustanovka va barqaror motivlarni shakllantirish, tadqiq etilayotgan jarayonni tahlil etish va muayyan tuzatishlar kiritish; natijalarni baholash va tahlil etish va h.k.

Tadqiq etilayotgan jarayonni modellashtirishning nazariy-metodologik asosi sifatida quyidagi qoidalarga tayanildi: tizimli, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv yondashuvlar; pedagogik loyihalash nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini modellashtirish; didaktik va metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslari; aksiologik yo'nalganlikni shakllantirish va ijtimoiy tarbiya konsepsiyasi; antikorrupsion munosabatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli maqsadga yo'naltirilgan, nazariy-metodologik, mazmunga doir, tashkiliy va natijaviylik komponentlarini o'zida aks ettirdi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**2.1-rasm. Bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirish modeli**

Maqsadga yo‘naltirilgan blok integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish tizimining boshqa bloklari uchun yetakchi rol o‘ynaydi. Mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir ta‘lim standartlari va ijtimoiy buyurtma, me‘yoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, oliy ta‘lim Davlat ta‘lim standartlari, shuningdek, oliy ta‘limda Xalollik tarbiyasini rivojlantirishning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari orqali belgilab olindi.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashga doir ta‘lim standartlari va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili oliy ta‘lim tizimida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy-pedagogik ishlarni maqbullashtirish lozimligini ko‘rsatdi.

Tizimning maqsadga yo‘nalganligi ma‘lum natijalarga erishish bilan belgilanadi. Maqsadni aniqlashtirish ishlab chiqilayotgan tizim javob berishi lozim bo‘lgan bir qator savollarga e‘tibor qaratish orqali amalga oshiriladi. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish muammosini muvaffaqiyatli hal etish uchun mazkur jarayonning yakuniy natijasi aniq aks ettirilishi lozim. Modelning maqsadi kompetensiyaviy yondashuv asosida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish tarzida aniqlashtirildi.

Modelni ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutildi: integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqishga doir metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish; modelning blok-tuzilmasini aniqlashtirish; model blok va elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ochib berish; modelning blok-tuzilmasi va elementlariga tavsif berish.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning samarali yondashuvlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tizimli-jarayonli yondashuv tadqiqotning umumiy asosi sifatida ilmiy izlanish mantig‘ini aks ettiruvchi muammoni qo‘yish, asosiy va lokal maqsadlarni aniqlashtirish, qarama-qarshi fikrlar va nuqtai nazarlarni aynanlashtiruvchi qoidalar bilan tavsiflanadi hamda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqishni ta‘minlaydi;



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



- aksiologik va reflektiv yondashuvlar strategiyaning nazariy-metodologik asosi sifatida nazariy tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlab beradi, uning umumiy ko‘rinishini aks ettiradi. Mazkur yondashuvlar qadriyatlar tizimini aniqlash hamda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish tizimida qayta aloqani ta‘minlashga imkon beradi;

- shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv qo‘yilgan maqsadga erishish uchun professor-o‘qituvchi va talabalar faoliyatini tashkil etish mexanizmi va tartib-qoidalarini aniqlash, o‘rganilayotgan hodisadan amaliy foydalanishning o‘ziga xosliklarini ochib berishga yo‘naltirilgan amaliy-yo‘naltirilgan taktika sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillar asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning integrativ metodikasi quyidagilardan iborat:

- hamkorlik tamoyili. Mazkur tamoyil professor-o‘qituvchi va talabalarning teng huquqli hamkor sifatidagi faoliyatini tashkil etadi. Shuning uchun o‘qituvchi dialog va fikrlar almashinuvi uchun sharoit yaratib beruvchi tajribali ustoz sifatida namoyon bo‘ladi;

- sub‘ektivlik tamoyili. Ushbu tamoyil integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish masalasiiga doir shaxsiy hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishini talab etadi. Mazkur jarayonda professor-o‘qituvchi talabalarning o‘z “Men”ini anglashi, o‘z xatti-harakatlarini oqibatini o‘ylashi, o‘zini ma‘lumotlarni uzatuvchi sifatida baholay olishi, shuningdek, Internet tarmog‘ida ishlash va muloqot jarayonida to‘g‘ri tanlov qabul qilishiga erishishi lozim;

- mustaqillik tamoyili. Mazkur tamoyil bo‘lajak pedagoglarning aniq maqsadlar va faoliyat asosida irodaviy sifatlarini rivojlantirishda erkinligini taqozo etadi.

Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning integrativ metodikasini amalga oshirish quyidagi majmuaviy pedagogik shart-sharoitlarni o‘zida aks ettiradi:

1) bo‘lajak pedagoglarida antikorrupsion sifatlarni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini qaror toptirish;

2) vaziyatlarni tahlil etish va topshiriqlarni bajarish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarida antikorrupsion sifatlarni va unga reflektiv munosabatni shakllantirish;

3) o‘quv loyihalarini tayyorlash jarayonida talabalarni korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ishlash tajribasini shakllantirish.

Shuningdek, mazkur blok tarkibiga integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning komponentlari (kognitiv, faoliyatga doir va metodik), pedagogning funksiyalari (informatsion, motivatsion-fasilitativ, konsultatsion) hamda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga doir talabalarning vazifalari (adaptatsiya, refleksiya, o‘z-o‘zini namoyon etish)dan iborat metodik ta‘minot mazmuni ham taalluqlidir.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Kognitiv komponent o'zida bir nechta o'zaro bir-biri bilan aloqador elementlarni qamrab oladi: 1) o'zlashtirish; 2) qo'llash; 3) umumlashtirish. U sanab o'tilgan jarayonlarni o'zaro aloqadorligini ko'rsatib beradi, ularning mohiyati va mazmunini ochib beradi: korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga doir bilimlar va qadriyatlarini o'zlashtirish. Mazkur komponent bo'lajak pedagoglar tomonidan korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga doir bilimlar va qadriyatlar tizimini vaziyatlarni tahlil etish va topshiriqlarni bajarish jarayonida qo'llash bilan ham bog'liq bo'lib, o'quv loyihalarini ishlab chiqish jarayonida mazkur bilimlarni umumlashgan holda foydalanishga erishiladi.

Faoliyatga doir komponent quyidagi uch elementni o'zida aks ettiradi: 1) ko'maklashish; 2) qo'llab-quvvatlash; 3) maslahat berish. U mazkur jarayonlarning aloqasi, ularning mazmun-mohiyati, amalga oshirish yo'llarini ochib beradi. Korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga ehtiyojmand sifatida bo'lajak pedagoglarning faolligini qo'llab-quvvatlash seminar, munozara, esse kabi o'qitish shakl va metodlarini qo'llash; korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga doir faoliyat jarayonida o'z-o'zini mustaqil namoyon etish uchun maslahatlar berib borish mualliflik o'quv loyihalarini ishlab chiqish, guruhiy munozaralarda ishtirok etish, keys topshiriqlarini bajarish jarayonida amalga oshiriladi.

Faoliyatga doir komponent professor-o'qituvchi va talabalarining o'zaro birgalikdagi harakati mexanizmlari yig'indisi (hamkorlik, qo'llab-quvvatlash, maslahatchilik), pedagog funksiyalari (informatsion, motivatsion-fasilitativ, konsultatsion) bilan chambarchas bog'liq ravishda metodik ta'minotni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hamda integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga doir vazifalar (adaptatsiya, refleksiya, o'z-o'zini namoyon etish)ni ochib beradi.

Metodik komponent integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning shakl, metod va vositalarini o'z ichiga qamrab oladi. U bevosita kognitiv va faoliyatga doir komponentlar bilan bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirishning metodik asosini o'zida ifoda etadi. Ana shu jihat bilan bog'liqlikda shunday xulosaga kelish mumkin: metodik komponent qo'yilgan maqsadga erishish imkonin beruvchi shakl, metod va vositalar yig'indisini o'zida aks ettiradi.

Modelning navbatdagi bloki natijaviylikni o'zida aks ettiradi. Mazkur blok baholovchi funksiyani bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun u o'zida integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish darajalari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Tadqiqotda baholashning uch mezonini ko'zda tutildi: 1) kognitiv; 2) faoliyatga doir; 3) aksiologik.

Mazkur baholash mezonlarini aniqlashda quyidagi talablarga rioya qilindi: mezonlar soni uchtdan kam bo'lmasligi, har bir mezon minimum uchta ko'rsatkichga ega bo'lishi;



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



- 1) mezonlar ularning kam yoki ko'p namoyon bo'lish darajasi haqida xulosa qilish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar asosida o'lchanadi;
- 2) mezonlar imkoni boricha pedagogik faoliyatning asosiy turlarini hisobga olish asosida qabul qilinishi kerak<sup>5</sup>.

Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy o'lchov mezonlari shaxsning rivojlantirishning ko'proq yuqori darajasini egallaganligini aks ettiradi. Aniqlashtirilgan mezonlar asosida bo'lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlanganligining ko'rsatkichlari belgilab olindi.

**2.1-rasm**

**Bo'lajak pedagoglarda antikorrupsion kompetentlikni rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari**

<b>Mezonlari</b>	<b>Ko'rsatkichlari</b>
Kognitiv	- korrupsiyaga murosaiz munosabatni rivojlantirish asoslari, oliy ta'limda xalollikni tarbiyalashning metod va vositalari haqidagi bilimlarning to'liqligi
Faoliyatga doir	- korrupsiyaga murosasiz munosabatni rivojlantiruvchi tayanch kompetensiyasiga egalik; - korrupsiyaga murosasiz munosabatni rivojlantirish motivatsiyasining shakllanganligi; - korrupsiyaga murosasiz munosabatni rivojlantirishda reflektiv nuqtai nazarining shakllanganligi
Aksiologik	- sabr, bardosh, chidamlilik, matonatning, shakllanganligi; - korrupsiyaga murosaiz munosabatni shakllanganligi

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish ko'rsatkichlarini aniqlashda quyidagi tamoyillarga tayanildi: ko'rsatkichlarning maksimal ravishda bir-biridan avtonomligi; olingan natijalami baholash tizimiga doir belgilarni tashxis qilish imkonining mavjudligi. Mazkur baho maqsadga binoan o'zida: a) tashxis qilinayotgan sifatning bir ma'noga egaligi; b) o'lchov vositasining mavjudligi; v) o'lchanayotgan belgini shakllash mumkinligi; ishonchlik; validlik – belgilangan ko'rsatkich belgisining eksperimentator aynan baholashni xohlagan jihatga mosligi; majmuaviylik – ko'rsatkich belgilarining yig'indisini qo'llash orqali tajriba-sinov ob'ekti holatining mazmun-mohiyatini ochib berish imkoniyati; betaraflik – tadqiq etilayotgan jarayonga ta'sir ko'rsatishning barqarorligi<sup>6</sup>.

5 Беликов В.А. Философия образования личности: деятельностный аспект. – М.: Владос, 2004. – 357 с.

6 Найн А.Я. Педагогический эксперимент: методика и его организация. – Магнитогорск: МаГУ, 2002. – Б.101.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarda antikorrupsion sifatlarni rivojlanganligini baholashda darajali yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv har bir mezon bo‘yicha bir darajadan boshqasiga o‘tishda o‘rganilayotgan jarayon dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Rivojlanish darajasini aniqlash va asoslash tajriba-sinov ishlari jarayonida muammoning umumiy yo‘nalishlarini o‘rganish va anglash maqsadida talabalarning dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Faoliyatga tayyorlash jarayonida talabalarning past darajadan maqbul darajaga qarab rivojlanishi sodir bo‘ladi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish samaradorligi ma‘lum bir sifat o‘zgarishlarining mavjudligi orqali aniqlanadi. Tadqiqotda integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning quyidagi darajalari aniqlandi: adaptiv (past), situativ-reproduktiv (o‘rta), kreativ (yuqori).

**2.2-rasm**

**Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish darajalari tavsifi**

- n	Daraja	Daraja tavsifi
Kognitiv	Adaptiv	Korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirish asoslari, bo‘lajak pedagoglarda kuchli iroda va matonatni rivojlantirishning metod va vositalari haqidagi bilimlarning past darajasi ongli idrok etish va xotirada saqlab qolish bilan tavsiflanadi
	Situativ-reproduktiv	Korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirish asoslari, bo‘lajak pedagoglarda kuchli iroda va matonatni rivojlantirish metod va vositalari haqidagi bilimlarning o‘rta darajasi
	Kreativ	Korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirish asoslari, bo‘lajak pedagoglarda kuchli iroda va matonatni rivojlantirish metod va vositalari haqidagi bilimlarning yuqori darajasi
Faoliyatga	Adaptiv	Korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirishning tayanch kompetensiyasi, kuchli iroda va matonatga motivatsiya, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga reflektiv nuqtai nazarning shakllanganligining past darajasi



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



	Situativ-reproduktiv	Korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish tayanch kompetensiyasi, kuchli iroda va matonatga motivatsiya, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish reflektiv nuqtai nazarning shakllanganligining o‘rta darajasi. O‘z xatti-harakatlarini mustaqil ravishda to‘liq baholay olmaydi. Reflektiv faoliyat qisman namoyon bo‘ladi
	Kreativ	Korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish kompetensiyasi yuqori darajada shakllangan, korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga mustaqil, ijodiy yondashuv bilan tavsiflanadi. Kuchli iroda va matonat motivatsiyasi yuqori darajada shakllangan. Jismoniy ta‘lim asosida o‘zining irodaviy sifatlarini rivojlantirishda o‘z xatti-harakatlarini mustaqil ravishda baholay olish darajasi yuqori. Reflektiv faoliyat doimiy namoyon bo‘ladi.
Aksiologik	Adaptiv	Korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga aksiologik yo‘nalganligi darajasi past. Xalollik tarbiyasi jarayonida irodasiz, toqatsiz va matnoatni namoyon qila olmaydi.
	Situativ-reproduktiv	Korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga aksiologik munosabati o‘rta darajada. Xalollik tarbiyasi jarayonida irodali va matnoatni namoyon qila olish istagi va quvvati barqaror emas.
	Kreativ	Korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishda aksiologik dunyoqarashi yuqori darajada. Xalollik tarbiyasi jarayonida iroda va matnoatni yuksak darajada namoyon qila oladi.

Mazkur darajalar bo‘lajak pedagoglarda irodaviy sifatlarni namoyon bo‘lish darajasini tavsiflashga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlanganlik darajasini tashxis etishning taklif etilgan dasturi asoslovchi bosqichda sinovdan o‘tkazildi va rivojlanganlik darajasini aniqlashga imkon beruvchi ta‘limiy tajriba-sinov jarayonida foydalanildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model yaxlit tavsifga ega bo‘lib, uning bloklari o‘zaro aloqador va yakuniy natijani aniqlashga xizmat qiladi; integrativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan harakatlarni tashkil etish vositasi sifatida pragmatik yo‘nalganlikka ega; talabalarni kasbiy tayyorlash tizimi sifatida ochiq tizimni o‘zida ifoda etadi.

Quyida bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda samarali bo‘lgan yo‘llarning mohiyati to‘g‘risida so‘z yuritiladi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



I. Kasbiy tayyorgarlik. Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda ularning OTMdagi kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy tayyorgarlik – shaxsda kasbiy yo‘nalganlik, bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy tayyorlikning shakllanishini ta‘minlovchi tashkiliy va pedagogik tadbirlar tizimi bo‘lib, OTMning faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqqan holda talabalar tomonidan mutaxassislik yoki nomutaxassislik fanlari sifatida huquq predmetlari asoslarini puxta o‘zlashtirishi ularda huquqiy kompetentlikni qaror toptirish va rivojlantirishga yordam beradi<sup>7</sup>. Kasbiy (bu o‘rinda oliy ma‘lumotlilik darajasida huquqiy bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish) tayyorgarlik malaka talabalariga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari asosida tizimli ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu esa talabalar tomonidan nazariy va amaliy xarakterdagi huquqiy bilimlarning izchil o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi. Aynan shu jihatiga ko‘ra kasbiy tayyorgarlik bo‘lajak mutaxassis sifatida talabalarning ixtisoslik faoliyatiga tayyorlashda ahamiyatli sanaladi.

Talabalarda huquq fanlarini o‘zlashtirish, mavjud bilimlarni amaliyotga tatbiq etish malakalari va antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirish o‘quv jarayonining tashkiliy hamda pedagogik tadbirlar tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunda asosiy e‘tibor kasbiy tayyorgarlik jarayonining ilg‘or pedagogik texnologiya hamda yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilishiga qaratilishi zarur.

Bo‘lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kasbiy tayyorgarlik tizimida iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar, shuningdek, noan‘anaviy yondashuvlarni ifodalovchi mahalliy tajribalardan o‘rinli foydalanish kutilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

II. Mustaqil o‘qib-o‘rganish (mustaqil ta‘lim). Ma‘lumki, har qanday o‘quv dasturiga ko‘ra huquq fanlari asoslarini vaqt byudjeti nuqtai nazaridan ta‘lim jarayonining o‘zidagina samarali o‘zlashtirishga erishib bo‘lmaydi. Zero, ta‘lim jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlarni izchil takrorlab borish, mustahkamlash va boyitish taqozo etiladi. Bunda talabalar tomonidan huquqiy bilimlarni qo‘shimcha ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganishga erishish qo‘l keladi. OTMdagi tashkil etiladigan mustaqil ta‘lim (mustaqil o‘qib-o‘rganish)ning asosiy maqsadi pedagog rahbarligi, nazorati ostida talabalarda o‘quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarining mustaqil o‘qib-o‘rganish, o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, malakalarni rivojlantirishdan iborat. Mustaqil ta‘limni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: o‘quv va mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturida belgilangan mavzularni mustaqil o‘zlashtirish; mavzular bo‘yicha zarur o‘quv axborotlari, materiallarini mustaqil izlash; ularni samarali o‘zlashtirishning metod va vositalarini aniqlash; mavzuga oid bosma axborot manbalari hamda Internet saytlaridan samarali foydalanish; o‘quv hamda mutaxassislik fanlari bo‘yicha bosma va elektron o‘quv, ilmiy, ilmiy-ommabop

<sup>7</sup> Профессиональная подготовка // <http://spravochnikprof.narod.ru/>.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni o'rganish; Internet tarmog'i materiallaridan maqsadli foydalanish; o'quv topshiriqlarini bajarishda yuqori samaradorlikka erishish; o'quv topshiriqlarini bajarishga tizimli, ijodiy va kreativ yondashish<sup>8</sup>.

Mustaqil o'qib-o'rganish (mustaqil ta'lim)ning didaktik ahamiyatiga ko'ra ayni vaqtda OTMda har bir o'quv va mutaxassislik fanlari bo'yicha mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Mazkur vaqt byudjeti talabalarning bo'sh vaqti, imkoniyatlari, qolaversa, mavjud pedagogik shart-sharoitdan kelib chiqqan huquq fanlari asoslarini o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Har bir OTMda o'quv va mutaxassislik fanlari bo'yicha mustaqil ta'limni samarali, izchil tashkil etishning huquqiy-pedagogik va amaliy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish orqali o'zlarida tadqiqotchilik, nazariy tahlil, amaliy vaziyatlar bo'yicha oqilona qarorlarni qabul qilish kabi ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladiki, bu ular tomonidan kelgusida ilmiy-pedagogik va maxsus tadqiqotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

III. O'zaro tajriba almashish. O'z mohiyatiga ko'ra, tajriba almashish muayyan soha yoki faoliyat yo'nalishi bo'yicha tegishli, bilim, ko'nikma, malakalar, huquqiy bilimlarni samarali o'zlashtirish va ularni amaliyotga izchil tatbiq etish vositalari, hissiy-qadriyatli munosabatlar yuzasida o'zaro fikrlashish, orttirilgan tajribalarga oid ma'lumotlarni bir-birlari bilan o'rtoqlashishga qaratilgan faoliyatni anglatadi.

Bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish borasida o'zaro tajriba almashishi quyidagi bosqichlarda kechadi: 1) mavjud tajribaga oid ma'lumotlarni muayyan shakllarda taqdim etish; 2) taqdim etilgan ma'lumotlar asosida mavjud tajribalar bilan tanishib chiqish; 3) tanishib chiqilgan tajribalar yuzasidan o'zaro fikrlashish (yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish); mavjud tajribalarni o'zlashtirish bo'yicha harakat dasturini ishlab chiqish; harakat dasturiga muvofiq mavjud tajribani o'zlashtirishga amaliy jihatdan kirishish.

Antikorrupsion kompetentlikni rivojlantirish borasida tajriba almashish talabalarning o'zlari egallagan tajribaga ko'ra huquqiy-antikorrupsion bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning samarali yo'l, shakl, metod, vosita hamda texnologiyalaridan boshqalarni xabardor qilishi tushuniladi.

Tajriba almashish odatda ilmiy anjuman, uchrashuv, davra suhbat, brifing, matbuot-konferensiyasi, intervyu olish, bir-birini faoliyat, aniq huquqiy vaziyatlarda kuzatish kabi shakllarda amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur tadbirlarni "on-line" asosida tashkil etish mumkin. Bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish borasidagi mavjud tajribalari tengdoshlariga u haqidagi nazariy ma'lumotlarni maqola, xabar, axborot, taqdimot, plakat, risola, albom, buklet kabi shakllarda taqdim etiladi.

<sup>8</sup> Талаба мустақил ишини ташкил этиш, назорат қилиш ва баҳолаш тартиби тўғрисидаги Низом // <http://library.tma.uz/>.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



IV. Ilmiy anjumanlarda ishtirok etish. Talabalarning normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, ularning mohiyatini to'g'ri anglash, muayyan xatti-harakat yoki faoliyatga qo'yilayotgan ijtimoiy-huquqiy talablarning ahamiyatini to'g'ri, yetarlicha baholash ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlari ham antikorrupsion kompetentlikning elementlaridan biri sanaladi. Ilmiy anjumanlarning muayyan muammolar yuzasidan yechimlarni topish va ularni birgalikda muhokama qilish imkoniyati talabalar tomonidan huquqiy bilim asoslarini qanchalik to'g'ri, samarali o'zlashtirilganligi, uning darajasini baholashga imkon yaratish bilan birga o'zlari uchun istiqbol vazifalarni belgilab olishga ham yordam beradi. Qolaversa, ilmiy anjumanlardagi ishtirok tajribasi huquqiy masalalar yuzasidan mustaqil fikrlash, mulohaza, qarashlarni erkin ifodalash, fikrni asoslash va himoya qilish, boshqalarning fikrlariga munosabat bildirish orqali omma oldida o'zini tutish, ilmiy bahs-munozaralarni tashkil etish malakalari ham o'zlashtiradi. Bu ularning kelgusida kasbiy faoliyatlari uchun muhim bo'lib, mehnat jamoasiga tez moslashishlarini ta'minlaydi.

Shuningdek, ilmiy anjumanlar ishtirokchilarning bir-birlari bilan tanishish imkoniyatini ham yaratadiki, bu ularga talabalik yillarida va undan keyin ham ilmiy, ijodiy va amaliy loyihalarni birgalikda yaratish yo'lida hamkorlikni o'rnatishga zamin yaratadi.

VI. Volontyorlik faoliyatini olib borish. Psixologiyaning an'anaviy va zamonaviy tendensiyalar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga moslashishi, shaxs sifatida to'laqonli kamol topishida ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlariga bog'liqligini alohida e'tirof etmoqda. Darhaqiqat, individning shaxs sifatida kamol topishi uning ijtimoiy borliqdagi o'rni, ishtiroki va faolligiga bog'liq.

Zamonaviy sharoitda yetakchi davlatlarda shaxslarning jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishga imkon beruvchi mexanizmlar yaratilgan. Har bir fuqaro o'z qiziqishi, ehtiyoji yoki intilishlariga ko'ra muayyan ijtimoiy guruhlariga birlashgan holda ma'lum sohalar bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtiradi, turli tadbirlarda ishtirok etadi. Odatda ular tadbirlarning ishtirokchisi emas, balki tashkilotchisi sifatida ham o'zlarining ichki imkoniyatlarini namoyon qiladi. Volontyorlik faoliyatining aynan mana shu jihati talabalar tomonidan huquqiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga imkon beradi.

Talabalarning volontyorlik faoliyatida ishtirok etishlari ikki tomonlama foydalidir. Birinchidan, ularda ijtimoiy kompetentlik rivojlanadi, ikkinchidan, ko'ngilli sifatida huquqiy mavzulardagi tadbirlarni tashkil etish, unda faol ishtirok etish orqali mavjud bilimlarni boyitadi, kasbiy faoliyatda huquqiy bilimlardan maqsadli, o'rinli foydalanishga doir amaliy ko'nikma, malakalarni o'zlashtiradi, buning natijasida huquqiy kompetentlik sifatlari rivojlanadi.

VII. Blogger sifatida faoliyat ko'rsatish. Bugungi kunda yoshlar, xususan, talabalar orasida Internet tarmog'i ommalashgan. Internet tarmog'i xususida bir-biriga zid fikrlar mavjud. Bir guruh foydalanuvchilar Internet tarmog'i yoshlarning asosiy vaqtlarni band



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



etib, uning behuda sarflanayotganligini ta'kidlashsa, boshqa guruh, asosan, pedagoglar xalqaro "o'rgimchak to'ri"ning zamonaviy dunyo uchun ahamiyati beqiyos ekanligini aytishadi. Aslini olganda har qanday zamonaviy vosita sifatida Internet tarmog'ining funksional imkoniyatlaridan barcha ham birdek xabardor emas, shu sababli turli fikrlar yuzaga kelishi tabiiy.

Internet tarmog'i – axborotlardan tezkor xabardor bo'lish, ularni qiyinchiliksiz o'zaro almashish imkoniyatini ta'minlaydiki, uning vositasida Yer sharining istalgan nuqtasida yaratilgan ilmiy kashfiyot, ilg'or texnologiyalardan xabardor bo'lish, amaliyotga tatbiq etish mumkin. OTM, shuningdek, pedagogik tizim oldida turgan asosiy vazifa – ta'lim oluvchilar, xususan, talabalarni Internet tarmog'ida shaxs intellektini rivojlantirish, dunyoqarashni boyitish, o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish vositasi sifatida maqsadli foydalanishga odatlantirish (o'rgatish)dan iborat.

Bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirish jarayonida ham ular tomonidan blogger sifatida faoliyat ko'rsatish malakalarini o'zlashtirishga erishish orqali ularning faoliyatini ikki tomonlama foydali maqsadga yo'naltirish mumkin: birinchidan, blogger sifatida talaba huquqiy mavzuda Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda sahifa yoki kanal ochish orqali huquqiy bilimlarni targ'ib qilib boradi; ikkinchidan, uning o'zi ham antikorrupsion mavzulardagi axborot va materiallarni tanlash, ularni tahlil qilish, sahifa yoki kanalga joylashtirish orqali ularni yanada puxta o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan ularning huquqiy kompetentligini rivojlantiradi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida sinov ishlarining tajriba guruhlariga jalb etilgan respondent-talabalar ishtirokida Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda "Antikorrupsion axborot platformasi" nomli sahifa (Telegram) va kanal (Facebook) tashkil etildi.

Bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda ta'lim jarayoni hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tashkiliy shakllarini tanlash, ular asosida pedagogik faoliyatni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy shakllari deganda "pedagogik faoliyatning tashkiliy jihatdan uyushtirilishi, darsning qurilishi, tarkibiy tuzilishi"<sup>9</sup> tushuniladi va ular yordamida "talabalarga bilim berish, ularda ong, tafakkur, dunyoqarash va hayotiy tajribani shakllantirish"<sup>10</sup>, muayyan ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan jarayon tashkil etiladi.

Zamonaviy sharoitda OTMda ta'limning an'anaviy va noan'anaviy shakllari asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Ta'limning an'anaviy shakllari – ma'ruza, seminar,

<sup>9</sup> Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 191-б.

<sup>10</sup> Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 191-б.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



amaliy va laboratoriya mashg'uloti, pedagogik yoki ishlab chiqarish amaliyoti, sinov va imtihon, to'garak, klub, ilmiy jamiyat, ko'rik, tanlov, musobaqa bo'lsa, noan'anaviy shakllari – innovatsion xarakterdagi ma'ruza (muammoli ma'ruza, binar-ma'ruza, ma'ruza-konferensiya, ma'ruza-tadqiqot, ma'ruza-suhbat, ma'ruza-munozara), seminar (muammoli seminar, seminar-tadqiqot, seminar-suhbat, seminar-munozara), amaliy (o'quv, amaliy va ijodiy loyihalari), matbuot-konferensiyasi, brifing, "Mahorat darslari", "Muzey darslari", rolli va ishbilarmonlik o'yinlari va boshqalar hisoblanadi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllarini aniqlashga harakat qilindi. O'quv mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, amaliy seminarlar, treninglar, suhbatlar, bahs-munozaralar, to'garaklar, viktorinalar, tanlovlar, fan olimpiadasi, ekskursiyalar, uchrashuvlar (huquqshunos olimlar, amaliyotchi huquqshunoslar bilan uchrashuv), davra suhbatlari kabi tashkiliy shakllarning talabalarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda samarali ekanligi e'tirof etildi. Shu bilan birga shaxsning kasbiy kompetentligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishda innovatsion xarakterdagi tashkiliy shakllarni aniqlash hamda ulardan tajriba-sinov ishlarida foydalanishga ham e'tibor qaratildi.

Xulosa qilganda, o'rganilayotgan muammoga yaqin mavzularda bajarilgan tadqiqotlar, ilmiy hamda o'quv adabiyotlari bilan tanishish, ularni nazariy tahlil qilish, talabalarning o'quv-bilish faoliyati va huquqiy-ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi xatti-harakatlarini kuzatish, baholash asosida aniqlanadigan tashkiliy shakllar bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur, degan qarorga kelindi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.–9 b.
2. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llangan bayram tabrigi // Xalq so'zi. 2017. 15-yanvar'.
3. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / Xalq so'zi 2017. 1-iyul.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O'zbekiston, 2018. – 508 b.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (22-dekabr 2017-yil). T.: O'zbekiston. NMIU, 2018.– 80 b.
7. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2020. 25-yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi// Xalq so'zi. 2020. 30-dekabr.
9. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. – T.: O'zbekiston, 2019. 400 b.
10. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – T.: O'zbekiston, 2020. – 452 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Yangi taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020. – 454 b.
12. Фуқаролик жамиятида демократик қадриятлар: муаммо ва ечимлар //Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т.: ТДТУ, 2011.- 338 б.
13. Шодмонов А. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 80 б.
14. Ўзбекистон Республикасининг оммавий ахборот воситалари тўғрисида қонунчилик ҳужжатлари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 80 б.
15. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 252 б.